

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

ZAMONAVIY HARBIY MOJAROLARDA JANGOVAR TEXNIKALARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Podpolkovnik **Abdukarimov Farxodjon Maxammatalievich**

Qurollanish va otish kafedrası katta o'qituvchisi

I.A.Egamov

Chirchiq OTQMBYu 1-bosqich kursanti

Annotatsiya. Bugungi shiddatli dunyoda harbiy potensial muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ushbu tezisda jangovar qurol va texnikalarning jangovar potensialini aniqlashning matematik modellari va harbiy xizmatchining jangovar qobiliyatini baholash mezonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jangovar qurol, texnika, jangovar potensial, model, harbiy xizmatchi, jangovar qobiliyat, mezon.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyoda bo'layotgan harbiy mojarolardagi qurolli to'qnashuvlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jangovar harakatlarni belgilashda o'z qo'shini va dushman imkoniyatlarini to'g'ri baholash jang natijalariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunda bashoratlash imkonini beruvchi texnologiyalarning o'rni muhim ahamiyatga ega. Bundan shuni anglash mumkinki, harbiy bo'linmalardagi qurol va harbiy texnikalarning jangovar potentsiallarini aniqlash hamda baholash usullarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Jahonda texnik tizimlar, dasturiy vosita va kompyuter qurilmalaridan unumli foydalangan holda, harbiy bo'linmalarining jangovar tayyorgarligini tashkil etish va boshqarish, baholash, prognoz qilish, monitoring tizimlarini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, harbiy bo'linmaning jangovar potentsiali, qobiliyati va salohiyatini baholash mezonlarini takomillashtirish orqali harbiy bo'linmalarining jangovar salohiyatini baholash dasturiy vositasi va algoritmlarini yaratish muhim vazifalardan sanaladi.

Harbiy bo'linmalar shaxsiy tarkibining jangovar qobiliyatini aniqlash, monitoring qilish, jangovar salohiyatini baholash va algoritmlash sohasida xorijlik olimlardan N.I. Turko, I.A. Sheremet, V.A. Ryaboshapko, S.A. Modestov, V.I. Potapov, V.P. Demidenko, V.P. Ivanov, V.P. Sisuyev, B.A. Plishevskiy, V.S. Suxorutchenko, M.I. Zernov, I.I. Chuklyayev, V.A. Isupov, A.I. Gurskiy va boshqalar samarali tadqiqotlar olib borgan.

Taktik-texnik xususiyatlar va jangovar ko'rsatkichlar qanchalik yuqori yoki aksincha bo'lishi jangovar texnika va qurollarning yashovchanligi (uzoq vaqt jang davomidagi aktivligini yo'qotmasligi) hamda jangovar potensial ko'rsatkichi shuncha yuqori bo'lishini anglatadi.

Murakkab jangovar texnika va qurollarning jangovar potensial ko'rsatkichini aniqlash uchun ularning taktik-texnik xususiyatlari hamda jangovar ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni imkon darajasida to'liqroq to'plash lozim.

Jangovar harakatlar davomida va jangda ta'siri yuqori bo'lgan hamda muhim hisoblangan jangovar texnikaning taktik-texnik ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Jangovar texnikaning taktik-texnik ko'rsatkichlari

T/r	Nomlanishi	O'lchov birligi
1	Dvigatel quvvati	ot kuchi
2	Umumiy og'irligi	tonna
3	Maksimum harakatlanish tezligi	kilometr/soat
4	Orqaga harakatlanish maksimum tezligi	kilometr/soat
5	Umumiy yurish zaxirasi	kilometr
6	Ko'tarilish burchagi	gradus
7	Yon tomonlarga og'ish burchagi	gradus
8	Devorlardan o'tish balandligi	metr
9	Chuqurlikdan o'tish kengligi	metr
10	Korpus uzunligi	metr
11	Korpus kengligi	metr
12	Umumiy balandligi	metr
13	Ekvivalent zirh qalinligi	millimetr
14	Pushka kalibri	millimetr
15	Jangovar to'plam	dona
16	Otish sur'ati	dona/minut
17	Nishonlarni yo'q qilish uzoqligi	kilometr
18	Gorizont bo'yicha pushkani nishonga olish tezligi	gradus/sekund
19	Jangovar to'plam nomenklaturasi	dona
20	Snaryad yoki o'qning og'irligi	gramm

1-jadvalda keltirilgan taktik-texnik ko'rsatkichlar asosida texnikaning jangovar sifat ko'rsatkichlari belgilanadi. Bu jangovar texnikaning jangovar potensial ko'rsatkichini aniqlashni soddalashtiradi. Ayrim texnik ko'rsatkichlar asosida esa taktik ko'rsatkichlar aniqlanadi, misol uchun, jangovar texnikaning dvigatel quvvati, umumiy og'irligi va o'lchamlaridan solishtirma quvvati hamda yerga berilgan bosimi.

Barcha jangovar texnika va qurollar harakatchanlik, qurollanganlik, himoyalanganlik bo'yicha sifat ko'rsatkichlariga ega hamda dushman jangovar texnikalari, o'qotar qurollari va boshqa nishonlari bilan samarali jang olib borishga mo'ljallangan bo'ladi.

Jangovar texnika va qurollarning jangovar potensial ko'rsatkichi sifat ko'rsatkichlari, ya'ni harakatchanlik, himoyalanganlik va qurollanish koeffitsiyentlari asosida aniqlanadi:

1. Harakatchanlik koeffitsiyenti (R_1) – harakatchanlik, monyovrchanlik va to'siqlardan o'tuvchanlik xususiyatlarini belgilaydi.

2. Himoyalanganlik koeffitsiyenti (R_2) – bronihimoyalanganlik va o'lcham xususiyatlarini belgilaydi.

3. Qurollanish koeffitsiyenti (R_3) – qurollanishning effektivlik xususiyatlarini belgilaydi.

Mudofaa sanoatiga ega bo'lgan davlatlar mavjud quuruqlikdagi jangovar texnika va o'qotar qurollarning modernizatsiyalari hamda yangi mukammal konstruksiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, chet davlatlar qurolli kuchlaridagi mavjud turdoshlari bilan taqqoslash, jangovar texnika va qurollarning jangda qo'yilgan vazifalarning samarali bajarilishini

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

ta'minlash va tahlil qilishda jangovar-texnik potensial darajasini aniqlash muhim ahamiyatga ega

XULOSA VA MUNOZARA

Murakkab jangovar texnika va qurollarning jangovar potensialini aniqlash hamda baholash uchun ularning taktik-texnik ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni imkon darajasida to'liqroq to'plash lozim. Belgilangan me'yor va talabga ko'ra, barcha jangovar texnika va qurollarning konstruktorlik tizimi ishlab chiqiladi. Jangovar texnika va qurollarning jangovar potentsiali uning taktik-texnik xususiyatlari sifati hamda son ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lib, ko'rsatkichlarning yuqori yoki past bo'lishi esa qo'yilgan vazifalarni bajarish samaradorligini oshirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Donskov, Y., Fedyunin, P., & Vasiliev, V. (2020). The use of geospatial data in determining the location of a moving ground target and its destruction. *Military Thought*(12), 99-108.
2. Elyushkin, V. (2019). *Geoinformation support of military operations. From sufficiency to excellence* (2nd ed., add. and corrected). Moscow: Samizdat Publ.
3. Fedotov, G. (1986). *Avtomatizirovannoye proyektirovaniye avtomobil'nykh dorog [Automated design of highways]*. Moscow: Transport Publ.
4. Hofer, R., & Loper, M. (1995). DIS to day. *Proceedings of the IEEE*, 83(8), pp. 1124-1137.
5. Kravchenko, P., & Omarova, G. (2014). Mikroskopicheskiye matematicheskiye modeli transportnykh potokov, 24-31.